e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/066dpk16

IJTIMOIY RIVOJLANISHNING EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI HAMDA PERSONALISTIK MEXANIZMLARI

Xojiyev Tunis Nurqosimovich
O‘zbekiston Milliy universiteti, mustaqil tadqiqotchi.
e-mail: karfagen_87@mail.ru

Annotatsiya.
Mazkur maqolada ijtimoiy rivojlanishning ekzogen va endogen omillari, tashqi chaqiriq bilan ichki javob munosabati, teleologik talqinlar hamda personalistik rivojlanish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shaxs erkinligi, inson kapitali, mimesis va ma’rifatning ijtimoiy o‘zgarishdagi o‘rni ochib beriladi. Tahlil natijasida ijtimoiy rivojlanish tashqi va ichki omillarning o‘zaro ta’siri, shaxsiy tashabbus va institutsional imkoniyatlarning uyg‘unligi asosida samarali kechishi asoslanadi.
Tayanch so‘zlar: ijtimoiy rivojlanish, ekzogen omil, endogen omil, teleologiya, personalizm, inson kapitali, mimesis, ma’rifat, shaxs erkinligi, ijtimoiy institut.

ЭКЗОГЕННЫЕ И ЭНДОГЕННЫЕ ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ И ЕГО ПЕРСОНАЛИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ

Хожиев Тунис Нуркосимович
Национальный университет Узбекистана, независимый исследователь.

Аннотация.
В статье проводится сравнительный анализ экзогенных и эндогенных факторов социального развития, взаимосвязи между внешним вызовом и внутренним ответом, телеологических интерпретаций, а также персоналистических механизмов развития. Раскрывается роль свободы личности, человеческого капитала, мимесиса и просвещения в социальных изменениях. В результате анализа обосновывается, что эффективное социальное развитие осуществляется на основе взаимодействия внешних и внутренних факторов, а также гармоничного сочетания личной инициативы и институциональных возможностей.
Ключевые слова: социальное развитие, экзогенный фактор, эндогенный фактор, телеология, персонализм, человеческий капитал, мимесис, просвещение, свобода личности, социальный институт.

EXOGENOUS AND ENDOGENOUS FACTORS OF SOCIAL DEVELOPMENT AND ITS PERSONALISTIC MECHANISMS

Xojiyev Tunis Nurqosimovich
National University of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.
This article provides a comparative analysis of the exogenous and endogenous factors of social development, the relationship between external challenges and internal responses, teleological interpretations, and personalistic mechanisms of development. It examines the role of individual freedom, human capital, mimesis, and enlightenment in social change. The analysis demonstrates that effective social development is based on the interaction between external and internal factors, as well as the harmonious combination of individual initiative and institutional opportunities.
Keywords: social development, exogenous factor, endogenous factor, teleology, personalism, human capital, mimesis, enlightenment, individual freedom, social institution.

Kirish. Ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini tushuntirishda ularning sabablari, harakatlantiruvchi kuchlari va shaxs hamda jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘rni fundamental ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlarni faqat tashqi ta’sirlar yoki faqat ichki jarayonlar bilan izohlash murakkab ijtimoiy dinamikani biryoqlama talqin qilishga olib keladi. Ayni paytda globallashuv, raqamlashtirish, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va ta’lim tizimining yangilanishi tashqi chaqiriqlar bilan ichki institutsional hamda shaxsiy imkoniyatlarning o‘zaro ta’sirini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois ijtimoiy rivojlanishning ekzogen va endogen omillari, teleologik talqinlari, personalistik yondashuvi, mimesis va ma’rifat mexanizmlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

J. F. X. Paiva ijtimoiy rivojlanishni shaxsiy va umumjamiyat farovonligi yo‘lida inson qobiliyatlarini takomillashtirish jarayoni sifatida talqin qilib, tuzilmaviy o‘zgarishlar va institutsional rivojlanishning ahamiyatini ko‘rsatadi [1]. A. J. Toynbi asarida tashqi chaqiriq bilan ichki javob munosabati hamda mimesisning rivojlanish mexanizmi sifatidagi imkoniyat va cheklovlari tahlil qilinadi [2]. A. Bergson nashrida ijtimoiy talabga asoslangan axloq bilan ijodiy shaxs timsolidagi mutlaq axloq o‘rtasidagi farq ochib berilib, shaxsiy namuna va ijodiy turtkining ijtimoiy o‘zgarishdagi o‘rni asoslanadi [3]. V. S. Solovyov va N. A. Berdyayev asarlarida rivojlanishning maqsadga muvofiqligi, axloqiy takomil va tarix ma’nosi bilan bog‘liq

ISSN 3060-5059 (Online)

masalalar yoritiladi [4]. P. Shtompka ijtimoiy o‘zgarishlarning dunyoviy utopistik talqinlari va tarixiy transformatsiyasini tahlil qilish uchun nazariy asoslarni taklif qiladi [5]. A. Sen rivojlanishni inson erkinliklarini kengaytirish bilan bog‘lab, shaxs imkoniyatlarining ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rnini konseptual jihatdan kuchaytiradi [6]. Mazkur tadqiqotlar tahlili tashqi va ichki omillar, shaxsiy erkinlik hamda ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi aloqadorlikni kompleks tahlil qilish zaruratini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik birligi, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, germenevtik talqin hamda tuzilmaviy-funksional yondashuvdan foydalanildi. Ekzogen va endogen omillar ularning ijtimoiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirish mexanizmi bo‘yicha, teleologik talqinlar maqsad va natija munosabati bo‘yicha, personalistik yondashuv esa shaxs erkinligi, motivatsiyasi, ma’rifat va ijtimoiy ishtirok mezonlari bo‘yicha qiyoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyat taraqqiyotini tushunish uchun muhim bo‘lgan navbatdagi jihatlardan biri jarayonning sabablari va harakatlantiruvchi kuchlari masalasidir. Ayrim mutafakkirlar ijtimoiy taraqqiyot sabablarini ekzogen, ya’ni jamiyatga nisbatan tashqi omillarda ko‘radilar. “Bunday omillar sifatida g‘ayriijtimoiy (kosmik qonunlar ta’siri, ilohiy aralashuv, u yoki bu hududda yashovchi odamlarga tabiiy kuchlarning ta’siri) va ijtimoiy (bir jamiyatning boshqasiga ta’siri) kabilarni keltirish mumkin”.

Boshqa faylasuflar jamiyat taraqqiyotining yagona harakatlantiruvchi kuchlari sifatida faqat ichki omillarni ko‘rib chiqadilar. Ular jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarning sababi aynan ijtimoiy jarayonlarda va inson faoliyatida yashiringan deb hisoblaydilar. T. Parsons, L. Kozer, R. Darendorf, R. Kollinz, K. Levi-Stross va boshqalar ana shunday mutafakkirlar sirasiga kiradi.

Uchinchi shartli guruhga tashqi va ichki omillarni jamiyat rivojlanishining teng ahamiyatli sabablari sifatida ko‘rib chiquvchi mutafakkirlar kiradi. Bunga misol qilib, Toynbining harakat maydonini ko‘chirish haqidagi konsepsiyasini keltirish mumkin. Ingliz tarixchisi o‘sish mezoni sifatida “energiya ko‘chishi”ni, ya’ni “harakat sahnasi”ning tashqi sohadan ichki sohaga yoki aksincha siljishini tahlil qiladi. Shunday qilib, tashqi chaqiriq ichki chaqiriqlarni yuzaga keltiradi, ularga javoblar izlash esa rivojlanishning mazmuniga [7] aylanadi.

Ekzogen va endogen omillarni bir-biridan mutlaq ajratish ijtimoiy dinamikaning ko‘p omilli tabiatini soddalashtiradi. Tashqi muhit jamiyat oldiga yangi chaqiriqlarni qo‘yadi, ammo ularning natijasi ichki institutlar, bilim darajasi, ijtimoiy faollik va shaxsiy tashabbus orqali qayta ishlanadi. Shu bois ijtimoiy rivojlanishni tashqi turtki bilan ichki javobning o‘zaro ta’siri sifatida ko‘rib chiqish nazariy jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi.

Rivojlanish jarayonini tushuntiruvchi ehtimoliy metodologik yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi savollardan yana biri sifatida mazkur jarayonning teleologik xarakter kasb etishi yoki etmasligi masalasi hisoblanadi. Soddaroq qilib aytganda, jamiyat oldindan belgilab qo‘yilgan muayyan maqsadga muvofiq rivojlanadimi? Masalaga bunday yondashish rivojlanish haqidagi chiziqli tasavvurlarga tayanadi. Shu ma’noda teleologik yondashuvni rivojlanishni nochiziqli tasavvurlar asosida tushuntirishga yo‘naltirilgan nazariyalar orqali ifodalash imkonsiz. Rivojlanishni bir yo‘nalishda amalga oshadigan jarayon sifatida tushuntirishni nazarda tutuvchi ikki xil ehtimoliy metodologik yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Zamonaviy raqamlashgan muhitda mazkur bog‘liqlik yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Global texnologik yangiliklar tashqi omil sifatida jamiyatga tez kirib keladi, ulardan samarali foydalanish esa ta’lim sifati, raqamli savodxonlik, institutsional moslashuv va fuqarolarning shaxsiy mas’uliyatiga bog‘liq. Bu holat Toynbi ta’kidlagan tashqi chaqiriqning ichki faoliyat maydoniga ko‘chishi g‘oyasini zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga tatbiq qilish imkonini beradi.

Shunday yondashuvlardan biri taraqqiyparvarlik konsepsiyasi bo‘lib, unga ko‘ra, harakat bir yoqlama yo‘nalganlik kasb etgani holda jamiyat cheksiz ravishda doimiy o‘zgarib, takomillashib boradi;

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra, rivojlanish jamiyat mavjudligining eng mukammal nuqtasiga intilish, aniqrog‘i, tarixiy jarayonning yakunini anglatuvchi ideal jamiyatga yaqinlashish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, rivojlanishni teleologik nuqtayi nazardan tushuntiruvchi konsepsiyalar diniy va dunyoviy shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Rivojlanishni teleologik yondashuvga ko‘ra tushuntirishning diniy shaklida ko‘pincha u esxatologik mazmun kasb etib, dunyoning intihosiga yaqinlashish ma’nosida talqin etiladi. Qolaversa, dunyoviy va diniy utopizmni ifodalovchi konsepsiyalar ham rivojlanishni teleologik yondashuv asosida tushuntirishning o‘ziga xos shakllaridan biri sanaladi. Bu ma’noda rivojlanish ideal shakldagi jamiyatga erishish uchun intilish ma’nosida tushuntiriladi [1].

G‘oyalarning falsafiy-tarixiy transformatsiyasi nuqtayi nazaridan qaraganda, rivojlanishni maqsadga muvofiq harakat tarzida talqin qiluvchi diniy va dunyoviy utopizm g‘oyalari o‘zaro aloqador tarzda namoyon bo‘ladi. Soddaroq qilib aytganda, rivojlanishning dunyoviy utopistik shakli nasroniylikdagi ontologik tenglik g‘oyasini ijtimoiy munosabatlar doirasiga ko‘chirgan holda barchaning ma’nan tengligi ko‘rinishida qayta mushohadalashga asoslanadi [2].

Ammo ilmiy yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda, ijtimoiy rivojlanishning teleologik konsepsiyalari o‘zida tanqidbardoshlikni namoyon qilmaydi. Mazkur mulohazaning chinligini asoslovchi argument sifatida Toynbining bu boradagi qarashlarini keltirib o‘tish mumkin. Unga ko‘ra, ijtimoiy rivojlanishning teleologik konsepsiyalarida aytilgan taraqqiyotning ideal yakunini unga erishilgandan so‘nggina empirik nuqtayi nazardan tekshirish mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, hali erishilmagan ideal jamiyatning rostdan ham ideal yoki yo‘qligini tekshirishning empirik nuqtayi nazardan imkoni yo‘q. “Uning fikriga ko‘ra, masalan, G‘arb tarixi o‘zining rivojlanish jarayonini yakunlab, G‘arb tarixi sifatida barham topgandagina, uning ideal yoki ideal emasligini baholash imkoni yuzaga keladi” [3].

“Ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda rivojlanish kategoriyasi jamiyat hayotining ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy singari ko‘plab sohalarida ro‘y beradigan o‘zgarishlar va dinamik jarayonlarni ifodalash ma’nosida ham qo‘llanilishi

ISSN 3060-5059 (Online)

mumkin" [4]. O‘z mazmunida jamiyatdagi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, individuallik va jamoaviylikning o‘zaro aloqadorligini, shuningdek, shaxsning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni kabi zaruriy belgilarni aks ettirganligi tufayli rivojlanishni baholashda uning ijtimoiy o‘lchamlari birlamchi ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda ijtimoiylik deganda, jamiyatdagi individlar, guruhlar, qatlamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va munosabatlar nazarda tutilsa, jamiyat rivoji deganda, eng avvalo, uning ijtimoiy sohasida ro‘y bergan o‘zgarish va dinamik jarayonlar nazarda tutiladi. Ammo ayni yondashuvni jamiyat hayotining ijtimoiydan boshqa iqtisodiy, madaniy, siyosiy kabi sohalari rivojlanish nuqtayi nazaridan ikkilamchi ahamiyat kasb etadi degan ma’noda qabul qilish nojoiz. Bundan kelib chiqqan holda, ijtimoiy rivojlanish fenomenini individual va jamoaviy munosabatlar tuzilmasida ro‘y beradigan sifatiy dinamika hamda individual va jamoaviy potensiallar o‘rtasidagi keskin farqlarni minimallashtirgan holda shaxs mustaqilligi uchun zaruriy sharoit yaratish mazmunini kasb etuvchi tushuncha sifatida tasavvur qilish mumkin. XX asrning ikkinchi yarmida ro‘y bergan ijtimoiy siyosat amaliyoti va rivojlanish dasturlarida o‘zining yaqqol ifodasini topdi. J. F. X. Payvaning fikriga ko‘ra, "rivojlanish deganda, kishilarning shaxsiy va umumjamiyat farovonligi yo‘lida doimiy mehnat qilish qobiliyatlarini muntazam ravishda takomillashtirib borish jarayoni tushuniladi" [5]. Keyingi ishlarida esa mutafakkir o‘zining qarashini birmuncha to‘ldirilgan shaklda tushuntirishga intiladi. Unga ko‘ra, "bu yondashuv tuzilmaviy o‘zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, institutsional rivojlanish kabi bir qator omillar bilan boyitilishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi" [6].

Ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida ijtimoiy reallikni tushuntirishga qaratilgan ikki xil metodologik yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunday yondashuvlarning birinchisida ontologik ma’nodagi ustunlik shaxsga berilsa, ikkinchisida ijtimoiy yaxlitlikning birlamchi ahamiyat kasb etishi mutlaqlashtiriladi. Ijtimoiy reallik talqinida ijtimoiy yaxlitlikning ontologik maqomini mutlaqlashtiruvchi konsepsiyalar sotsiotsentrizm, sotsiologizm deb atalsa, aksincha, shaxsning rolini urg‘ulovchi yondashuvlar personalizm, individualizm yoki antropologizm deb ataladi. Terminologik jihatdan murakkab metodologik chalkashliklarni yuzaga keltirmaslik uchun ularni shartli ravishda personalistik va sotsiotsentrik yondashuvlar sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq. Ayni yondashuvlar ijtimoiy rivojlanish jarayonini tushuntirishda birmuncha qulayliklar yaratadi:

Ijtimoiy rivojlanishning personalistik konsepsiyalari ayni jarayonni tushuntirishda shaxs manfaatlarini umumjamiyat manfaatlariga qarama-qarshi qo‘ygan holda uni o‘z yondashuvlarining determinanti sifatida tavsiflaydilar. Bunday konsepsiyalarda rivojlanish va takomillashish tushunchalari o‘zaro aynanlashtirilgan holda, jamiyat taraqqiyoti individual takomillashuvning pirovard mahsuli sifatida tavsiflanadi. Soddaroq qilib aytganda, ayni yo‘nalishdagi metodologik yondashuvlar ijtimoiy dinamika jarayonlarini kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirok darajasining miqdoran ko‘pligi bilan belgilagan holda axloqiy standartlarni insoniy munosabatlar regulyatsiyasining mezoni sifatida ta’kidlaydi. Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy rivojlanishning personalistik ruhdagi konsepsiyalarida jamiyat o‘zgarishlarining vektorlari shaxs ma’naviy tuzilmasi evrilishlaridagi sifatiy sakrashlarga qarab yo‘nalgan bo‘ladi. Personalistik ruhdagi ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalarida jamiyat taraqqiyotining zaruriy sharti sifatida shaxs takomili uchun taqozolanadigan erkinlik va resurslarning mavjud bo‘lishi hamda undan barchaning teng foydalana olish imkoniyatlari omillari ko‘rsatiladi. Shuningdek, bu qarash jamiyat rivojlanishi faqatgina har bir inson tashabbus ko‘rsatganda va jamiyat farovonligi uchun shaxsiy mas’uliyatni his qilgandagina ro‘yobga chiqishi to‘g‘risidagi tasavvurni o‘z ichiga oladi.

Personalistik yondashuv nuqtayi nazaridan har bir individning shaxsiy rivojlanishga nisbatan motivatsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, zotan uning har bir shaxsda shakllanishi umumjamiyat rivojiga olib keladi. Mazkur konsepsiyada nazarda tutilgan rivojlanish modeliga ko‘ra, ta’lim olish imkoniyati va moddiy resurslarning cheklanganligi, sog‘liqni qo‘llab-quvvatlash darajasining pastligi singari obyektiv omillar rivojlanish to‘siqlari hisoblanadi. "Ayollar, kambag‘allar singari aholining ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlami uchun ham ta’lim, sog‘liqni saqlash singari ijtimoiy soha yo‘nalishlarida imkoniyatlarning kengaytirilishi inson kapitalining shakllanishiga olib kelgan holda istiqbolda jamiyat taraqqiyotini kafolatlaydi" [1]. A. Senning fikriga ko‘ra, "shaxs erkinliklarining kengaytirilishi va kafolatlanishi insonning o‘ziga va boshqalarga yordam berishi uchun zamin hozirlaydi. Ayni ikki element esa rivojlanishning zaruriy tarkibiy qismi sanaladi" [2]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy muammolarni hal qilish shunchaki tirik qolishdan to‘laqonli farovon yashash turmush darajasiga o‘tishning muhim sharti sanaladi. Buning uchun esa jamiyatda ko‘pchilikni tashkil qiluvchi ijodkor bo‘lmagan qatlam kam sonli ijodkorlar stratifikatsiyasi tomonidan beriladigan turtkini qabul qilishga tayyor bo‘lishi lozim. Mazkur turtkini kam sonli ijodkor qatlamdan ko‘pchilik ijodkor bo‘lmagan qatlamga o‘tkazish jarayoni bir nechta kanallar orqali amalga oshiriladi. Shunday kanallardan biri mimesis, aniqrog‘i, taqlid hisoblanadi. "Anri Bergson «Axloq va dinning ikki manbai» asarida ijtimoiy talablarni bajarishga asoslangan shaxssiz axloqni «ibrat bo‘ladigan favqulodda shaxsda mujassamlashgan» mutlaq axloqqa qarama-qarshi qo‘yadi. Birinchisi jamiyatni qayta ishlab chiqarish va saqlab qolishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ikkinchisi taraqqiyot yo‘lidagi harakatni nazarda tutadi" [3]. Din asoschilari, islohotchilar, mistiklar va avliyolar kabi favqulodda shaxslar jamiyatda mustahkam o‘rnashgan, deyarli o‘zgarmasdek tuyuluvchi axloqiy me’yorlar chegarasini radikal tarzda bosib o‘tgan va o‘z mavjudligi bilan yangi axloqiy idealni shakllantirgan transgressiv shaxslardir. Ular ijtimoiy ongda taqlid obyektiga aylangan holda, axloqiy paradigmalarning yangilanishiga zamin yaratadilar. Bergson shunday yozadi: "...qahramonlikni o‘rgatib bo‘lmaydi; uning namoyon bo‘lishining o‘zi kifoya va uning mavjudligi boshqa odamlarni harakatga keltirishi mumkin. Aslida, uning o‘zi harakat sari yo‘nalishni anglatadi. U har qanday hissiyot singari yuqumli bo‘lgan, ijodiy aktga aloqador tuyg‘udan kelib chiqadi" [4].

Personalistik yondashuvda shaxsning rivojlanishga tayyorligi faqat individual istak bilan cheklanmaydi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborotga kirish va mehnat qilish imkoniyatlari shaxsiy tashabbusni amaliy natijaga aylantiruvchi ijtimoiy shartlar hisoblanadi. Shu ma’noda inson kapitalini rivojlantirish bilan shaxsiy erkinliklarni kengaytirish o‘zaro to‘ldiruvchi jarayonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ammo ijtimoiy rivojlanish mexanizmi sifatida mimesis o‘zida bitta jiddiy kamchilikni namoyon qiladi. Tashqi taqlid sifatida mimesis jamiyatning ko‘p sonli ijodkor bo‘lmagan qatlami vakillari tomonidan amalga oshiriladigan erkin va

anglangan tanlov aktiga cheklovlar o‘rnatadi. Toynbining ta’kidlashicha, mimesisda namoyon bo‘ladigan cheklov shundan iboratki, unga ko‘ra, taqlid shaxsning ichki tashabbusi ko‘rinishida emas, rivojlangan jamiyatlardagi chaqiriqlarga mexanik javob sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda ijtimoiy rivojlanishning mexanizmi sifatida mimesis samarador faoliyat ko‘rsatmaydi [5].

Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, mexanik anglanmagan taqlid shaklida namoyon bo‘lish xususiyati mimesisning normativ xususiyat kasb etishiga xalaqit beradi. Bu esa mimesisni ijodkor bo‘lgan kamchilikdan tashkil topuvchi qatlam turtkisini ijodkor bo‘lmagan ko‘pchilikdan iborat qatlamga translyatsiyalashning zaruriy usuli sifatida tavsiflash imkonsiz ekanligini ko‘rsatadi. Shu ma’noda yuqorida tavsiflangan taqlid konsepsiyasini Toynbining tashqi turtkini ichki faoliyat maydoniga ko‘chirish g‘oyasi bilan uyg‘unlashtirish eng maqbul usul hisoblanadi. Ko‘pchilikdan tashkil topuvchi ijodkor bo‘lmagan qatlam tomonidan o‘z hayotlarining muammoli ekanligini anglab yetish hodisasi kamchilikdan iborat ijodkor qatlam beradigan turtkini ularga translyatsiyalashning muhim sharti sifatida ko‘rsatish mumkin. Toynbining fikricha, ijodkor ozchilik nafaqat jamiyat muammolarini anglashi va zamonaviy chaqiriqqa o‘z javob variantini taklif etishi, shu orqali sustkash ko‘pchilikka namuna bo‘lishi kerak. Qolaversa, ichki va tashqi hayotda ko‘rgan muammolarni ijodkor bo‘lmagan ko‘pchilikning ongiga yetkazish uchun ham harakat qilishi lozim.

Ma’rifat tarqatish ijodkor qatlam turtkisini ijodkor bo‘lmagan qatlamga translyatsiyalashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ayni o‘rinda ma’rifat tushunchasi johillikka, aniqrog‘i, bilimsizlik, zamonaviy tendensiyalardan xabardorlik darajasining pastligini anglatuvchi johillikning antipodi sifatida qo‘llanilmoqda. Ayni o‘rinda mazkur kategoriyaning diniy, ma’naviy, axloqiy talqinlari ma’rifat tushunchasining mazmunida qamralmagan. Buni aniqroq tushunish uchun Yevropa va Sharq ma’rifatparvarlari, jumladan, jadidlar amalga oshirgan xalqni ma’rifatli qilish jarayonlarini tasavvur qilishning o‘zi kifoya. Jumladan, ta’lim olish sifatini yaxshilash va qamrovini kengaytirish jarayonlari ham xalqni ma’rifatli qilish mexanizmining zaruriy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Soddaroq qilib aytganda, ma’rifatli bo‘lmagan odam xabardorlik darajasi va bilimining pastligi tufayli demokratik jarayonlarda ishtirok etish, o‘z huquqlarini ilgari surish kabi qobiliyatlardan ham mosuvo bo‘ladi. Hattoki, oddiy gigiyenik bilimlarga ega bo‘lmagan aholi qatlami nafaqat o‘z sog‘lig‘i, balki yaqinlarining salomatligi borasida ham g‘amxo‘rlik qila olmaganligi tufayli umumjamiyatda sog‘lom turmush tarzi kechirish darajasi pastligicha qolaveradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Ijtimoiy rivojlanishni faqat ekzogen yoki endogen omillar bilan izohlash uning ko‘p omilli tabiatini to‘liq ochib bermaydi.
2. Tashqi chaqiriqning ichki institutsional va shaxsiy javobga aylanishi rivojlanishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.
3. Teleologik yondashuvlar tarixiy harakatga maqsadli mazmun beradi, ammo ularning yakuniy idealini empirik tekshirish imkoniyati cheklangan.
4. Personalistik yondashuv shaxsiy erkinlik, inson kapitali va mas’uliyatni ijtimoiy taraqqiyotning muhim shartlari sifatida asoslaydi.
5. Mimesis qisqa muddatli taqlid mexanizmi bo‘lishi mumkin, ma’rifat esa anglangan va barqaror ijtimoiy ishtirokni kuchaytiradi.
6. Raqamlashtirish loyihalarida tashqi texnologik yangiliklar bilan aholining raqamli savodxonligini bir vaqtda rivojlantirish maqsadga muvofiq.
7. Ta’lim va ijtimoiy siyosat dasturlarida shaxsiy tashabbusni qo‘llab-quvvatlovchi imkoniyatlar bilan ma’rifiy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish zarur.
8. Islohotlarni baholashda tashqi ta’sir ko‘rsatkichlari bilan ichki institutsional va fuqarolik faolligi mezonlarini birgalikda qo‘llash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Paiva J. F. X. A Conception of Social Development // Social Service Review. — 1977. — Vol. 51, № 2. — P. 327–336. — Iqtibos: P. 332. URL: https://doi.org/10.1086/643500. journals.uchicago.edu
2. Тойнби А. Дж. Постижение истории / пер. с англ.; сост. А. П. Огурцов. — Москва: Прогресс, 1991. — С. 241–250. URL: https://www.prlib.ru/item/906141. Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина
3. Тойнби А. Дж. Постижение истории / пер. с англ.; сост. А. П. Огурцов. — Москва: Прогресс, 1991. — С. 304. URL: https://www.prlib.ru/item/906141. Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина
4. Бергсон А. Два источника морали и религии / пер. с фр., послесл. и примеч. А. Б. Гофмана. — Москва: Канон, 1994. — С. 53.URL: https://sci.ru/disk/file/105261. sci.ru
5. Бергсон А. Два источника морали и религии / пер. с фр., послесл. и примеч. А. Б. Гофмана. — Москва: Канон, 1994. — С. 55.URL: https://sci.ru/disk/file/105261. sci.ru
6. Соловьев В. С. Оправдание добра. — Москва: Республика, 1996. — С. 159.URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA2838619X. — Katalog qaydi. ci.nii.ac.jp
7. Бердяев Н. А. Смысл истории. — Москва: Мысль, 1990. — С. 147. URL: https://lib.biblionika.info/book/39339-smysl-istorii. — Katalog qaydi. Каталог библиотек «Библионики»
8. Штомпка П. Социология социальных изменений / пер. с англ.; под ред. В. А. Ядова. — Москва: Аспект Пресс, 1996. — С. 46.URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01001735505. Search RSL
9. Сен А. Развитие как свобода / пер. с англ. под ред. Р. М. Нуреева. — Москва: Новое издательство, 2004. — С. 35–36.URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01002596321. Search RSL
10. Тойнби А. Дж. Постижение истории / пер. с англ.; сост. А. П. Огурцов. — Москва: Прогресс, 1991. — С. 34–35. URL: https://www.prlib.ru/item/906141. Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина